

XALQ TABOBATI FANINI O'QITISHNING PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARI VA ULARNING TA'LIM SAMARADORLIGIDAGI AHAMIYATI

Qosimov Adxamjon Yoqub o'g'li

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail address: adhamjonqosimov1994@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xalq tabobati fanini o'qitishda zarur bo'lgan pedagogik kompetensiyalar, ushbu faning jamiyat hayotidagi o'рни va ahamiyati, shuningdek, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ilmiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Xalq tabobati orqali talabalarda tarixiy tafakkur, milliy qadriyatlarga hurmat va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *xalq tabobati, pedagogik kompetensiya, ta'lim, milliy qadriyatlar, tibbiy meros, metodika.*

Kirish

Bugungi globalashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalq tabobati – bu ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida to'plangan tibbiy bilimlar majmui bo'lib, u nafaqat sog'liqni saqlash, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega hisoblanadi. Ushbu fanini samarali o'qitish o'qituvchidan yuqori darajadagi pedagogik kompetensiyalarni talab etadi. Xalq tabobati – bu insoniyatning ko'p asrlik tajribasi asosida shakllangan davolash usullari tizimi bo'lib, u tabiat, kuzatuv va amaliy sinovlar orqali rivojlangan. U nafaqat tibbiy bilimlar majmui, balki xalqning madaniyati, turmush tarzi va dunyoqarashini ham aks ettiradi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining nafaqat bilimli, balki kompetent bo'lishi muhim hisoblanadi. Ayniqsa, xalq tabobati kabi murakkab va integrativ fanlarni o'qitishda pedagogik kompetensiyalar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki bu fan nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalar, milliy qadriyatlar va tarixiy tafakkurni ham o'z ichiga oladi.

Materiallar va usullar

Xalq tabobatining tarixiy ahamiyati. Qadimda xalq tabobati jamiyatda asosiy davolash vositasi bo'lgan. Ayniqsa, ilmiy tibbiyot hali rivojlanmagan davrlarda u yagona samarali tizim sifatida xizmat qilgan. Qishloq va chekka hududlarda shifokorlar bo'lmagan, tabiblar o'simliklar, tabiiy vositalar yordamida davolagan va har bir hudud o'ziga xos davolash usullariga ega bo'lgan.

Tajriba va kuzatuvga asoslangan bilimlar natijasida davolash usullari avloddan-avlodga o'tgan. Vaqt o'tishi bilan sinov va xatolar orqali samarali usullar saralangan.

Xalq tabobatida buyuk allomalarning boy merosi tarixiy ahamiyatga egadir. Sharq mutafakkirlari xalq tabobatini ilmiy asosda rivojlantirgan hamda o'z davrining tibbiyot sohasiga ulkan hissa qo'shgan. Misol uchun: Abu Ali ibn Sino – xalq tabobatini ilmiy tibbiyot darajasiga olib chiqqan. Abu Rayhon Beruniy esa – dorivor o'simliklar haqida muhim ma'lumotlar

bergan. Bu davrda dori vositalari tabiiy holatda asosan o'simlik, mineral va hayvon mahsulotlaridan tayyorlangan.

Xalq tabobatining hozirgi zamondagi ahamiyati. Bugungi kunda ilmiy tibbiyot rivojlangan bo'lsa-da, xalq tabobati o'z ahamiyatini yo'qotmagan, aksincha yangi bosqichga ko'tarilgan. Xalq tabobati zamonaviy tibbiyotga qo'shimcha sifatida qo'llanilmoqda, shuningdek fitoterapiya, aromaterapiya kabi yo'nalishlar muqobil tibbiyot sifatida keng rivojlangan. Uning profilaktik ahamiyat kasalliklarni oldini olishda muhim rol o'ynaydi va immunitetni mustahkamlashga xizmat qiladi Ekologik va iqtisodiy jihatdan qulaylik yaratilib, arzon va ommabop bo'lgan tabiiy mahsulotlardan foydalaniladi. Hozirgi kunda xalq tabobati usullari laboratoriya sharoitida o'rganilmoqda, shuningdek ilmiy tadqiqotlar orqali tasdiqlanmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida esa alohida fan sifatida o'qitilmoqda.

Jadval: Tarixiy va zamonaviy ahamiyatni solishtirish (tahlil)

Mezon	Avvalgi davr	Hozirgi davr
Asosiy roli	Yagona davolash vositasi	Qo'shimcha (muqobil) tibbiyot
Bilim manbai	Tajriba va an'ana	Ilmiy tadqiqot + an'ana
Vositalar	Tabiiy o'simliklar	Tabiiy + ilmiy qayta ishlangan
Qo'llanish darajasi	Keng ommaviy	Tanlab, nazorat asosida
O'rganilish darajasi	Og'zaki an'ana	Akademik va ilmiy tizim

2. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining nafaqat bilimli, balki kompetent bo'lishi muhim hisoblanadi. Ayniqsa, xalq tabobati kabi murakkab va integrativ fanlarni o'qitishda pedagogik kompetensiyalar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki bu fan nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalar, milliy qadriyatlar va tarixiy tafakkurni ham o'z ichiga oladi.

Pedagogik kompetensiya - bu o'qituvchining kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui hisoblanadi. U quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat: bilim (nazariy tayyorgarlik); ko'nikma (amaliy faoliyat); qadriyatlar (tarbiyaviy yondashuv); shaxsiy sifatlar (mas'uliyat, kommunikativlik).

Pedagogik kompetensiyalarning asosiy turlari quyidagilardan iborat: Kasbiy (maxsus) kompetensiya, metodik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, axborot (informatsion) kompetensiya, madaniy va qadriyatli kompetensiya.

Kasbiy (maxsus) kompetensiya orqali dorivor o'simliklar, xalqona davolash usullarini bilish, shuningdek an'anaviy va zamonaviy tibbiyot o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam beradi. Bu kompetensiyadan foydalanish natijasida noto'g'ri yoki ilmiy asoslanmagan bilimlarni oldini oladi. Metodik kompetensiya esa darsni to'g'ri rejalashtirishga va interaktiv metodlardan foydalanish (case-study, rol o'ynash, muammoli vaziyatlar)ga yordam beradi. Buning ahamiyati xalq tabobatini faqat nazariy emas, balki amaliy o'rganishga yordam beradi.

Kommunikativ kompetensiya bilan talabalar bilan samarali muloqot olib borilib, murakkab tushunchalarni sodda qilib tushuntirishga yordam beradi. Uning o'ziga xos ahamiyati talabalar fan mazmunini chuqurroq anglashida. Axborot (informatsion) kompetensiya esa, talabalar uchun ilmiy manbalar bilan ishlashni, internet va raqamli platformalardan foydalanishni va zamonaviy tadqiqotlarni darsga integratsiya qilishni o'rgatadi va xalq tabobatini ilmiy asosda o'qitishga xizmat qiladi. Madaniy va qadriyatli kompetensiyani o'rganishning eng kerakli tomoni, milliy qadriyatlarni tushunish, ajdodlar merosini hurmat qilish hamda tarbiyaviy jihatlarni yoritishga yordam beradi.

3. Xalq tabobati fanini o'qitishda pedagogik kompetensiyalarning o'rni

Xalq tabobati fani tarix, biologiya, tibbiyot fanlari bilan bog'liq. O'qituvchi bu fanlarni bog'lab, yaxlit bilim beradi va dorivor o'simliklarni aniqlash, damlama, qaynatmalar tayyorlash va sog'lom turmush ko'nikmalarini o'rgatishda amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi. Xalq tabobatidagi usullarni tahlil qilish, ilmiy va noilmiy yondashuvlarni farqlashda tanqidiy fikrlashni rivojlantiriladi. Buning natijasida milliy o'zlikni anglashga, qadriyatlarga hurmat qilishga, sog'lom turmush tarziga intilishga bo'lgan harakatlar boshlanadi.

Pedagogik kompetensiyalar xalq tabobatini o'qitishda quyidagi samaralarni beradi: birinchi o'rinda ta'lim sifati oshadi; talabalarning bu sohaga qiziqishi kuchayadi; o'rganish natijasida amaliy natijadorlik ortadi va ilmiy yondashuv shakllanadi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv natijasida talabalarda nazariy bilim, amaliy ko'nikma, oddiy eslab qolish, tahlil va qo'llash jarayoni shakllanadi.

Xulosa

Xalq tabobati fanini o'qitish zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu fan orqali talabalar nafaqat sog'liqni saqlashga oid bilimlarni, balki milliy qadriyatlarni ham o'zlashtiradi. Avvallari u asosiy davolash tizimi bo'lgan bo'lsa, hozirda u ilmiy tibbiyot bilan integratsiyalashgan holda qo'llanilmoqda. Bu esa uning moslashuvchan va barqaror bilim tizimi ekanligini ko'rsatadi. O'qituvchining pedagogik kompetensiyalari esa bu jarayonning samaradorligini belgilovchi asosiy omildir. Shu bois, pedagoglarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Xalq tabobati tarixan insoniyat hayotida muhim o'rin egallagan va bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Natijada, xalq tabobati nafaqat o'quv fani, balki sog'lom turmush va ma'naviy tarbiya vositasiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
2. Islom Karimov. *Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch*. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Abu Ali ibn Sino. *Tib qonunlari*. - Toshkent: Fan, 1980.
4. Abu Rayhon Beruniy. *Saydana*. - Toshkent: Fan, 1974.
5. Pedagogika nazariyasi va tarixi: Darslik. - Toshkent: O'qituvchi, 2019.
6. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat asoslari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.



7. Xalq tabobati va fitoterapiya asoslari. – Toshkent: Ibn Sino nashriyoti, 2018.
8. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’limni tashkil etish metodikasi. – Toshkent, 2021.
9. Oliy ta’limda innovatsion pedagogik metodlar: O’quv qo’llanma. – Toshkent, 2022.
10. Sog’lom turmush tarzi va xalq tabobati: ilmiy maqolalar to’plami. – Toshkent, 2019.